



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Муратов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

yaratmoqda. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, energetika va infratuzilma yo‘nalishlarida investitsiya faolligining ortishi iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Biroq, investitsion muhitning yanada takomillashuvi uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq tizimini mustahkamlash, kapital bozorlarini rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, 2025-yil natijalari O‘zbekistonning xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha salohiyati sezilarli darajada oshganini va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam asos yaratilganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yildagi “Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-97-sonli farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7594188>
2. Sharipov N. — "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" (darslik) — Toshkent, 2019-yil 320 sahifa
3. Мировая экономика и международные экономические отношения / Под ред. В.Б. Мантусова, Н.Д. Эриашвили // Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. – 447 с.
4. UNCTAD ning O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi va Markaziy Banki bilan hamkorlikda to‘plangan rasmiy statistikasi asosida muallif tomonidan tuzildi
5. Madura J. — "International Financial Management" — Cengage Learning, 13th edition, 2020

UDK: 338.45

**SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV
MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH IQTIQBOLLARI
(oziq-ovqat sanoati misolida)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕХАНИЗМОВ
УПРАВЛЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ
(на примере пищевой промышленности)**

**PROSPECTS FOR THE USE OF MODERN MANAGEMENT MECHANISMS IN THE
OPERATIONS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES
(The Case of the Food Industry)**

Madaminov Anvar Mamayunusovich

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Oziq-ovqat sanoati faoliyatini yanada rivojlantirishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatiga zamonaviy boshqaruv mexanizmini tatbiq etish hamda uni rivojlantirish, ushbu jarayonda boshqaruvga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish, oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarining qo‘llab-quvvatlash muhim sanaladi. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini zamonaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish hamda uning dolzarbligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshqarish mexanizmi, ta‘sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, zamonaviy boshqaruv, oziq-ovqat importi, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

В дальнейшем развитии деятельности пищевой промышленности важное значение имеет внедрение и развитие современного механизма управления деятельностью предприятий пищевой промышленности, изучение факторов, влияющих на управление в этом процессе, модернизация отраслей пищевой промышленности и поддержка предприятий пищевой

промышленности. В данной статье раскрывается использование современных систем управления деятельностью предприятий пищевой промышленности, а также ее актуальность.

Ключевые слова. механизм управления, факторы влияния, реформы, пищевая промышленность, современное управление, импорт продуктов питания, экспорт продуктов питания.

For the further development of the food industry, the implementation and development of a modern management system for food industry enterprises, the study of factors influencing management in this process, the modernization of food industry sectors, and the support of food industry enterprises are of great importance. This article discusses the use of modern management systems for food industry enterprises and their relevance.

Keywords: management mechanism, influencing factors, reforms, food industry, modern management, food imports, food exports.

Bugungi kunda jahondagi siyosiy betartibliklar va uning natijasida turli ziddiyatliklar ortishining salbiy oqibatlarini insonlarning birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta’sirini kamaytirish dolzarb hisoblanadi. Ushbu jarayonda esa oziq-ovqat sanoati korxonolari faoliyatini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi bir necha yil ichida dunyoda ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikni bartaraf etish yo‘lidagi taraqqiyot rivojlanishi sekinlashdi, natijada esa ko‘plab odamlar ovqatlanish uchun yetarli oziq-ovqatsiz qola boshladi. Jahon oziq-ovqat dasturining hisob-kitoblariga ko‘ra, 79 mamlakatda 349 million kishi oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelmoqda [1]. Bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o‘lishni ta’minlash asosida aholi turmush sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonolari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Oziq-ovqat va oziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va narxlar barqarorligini ta’minlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo‘yicha 32 foiz, go’sht — 25 foiz, meva-sabzavot — 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko‘rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha choralarni nazarda tutish” alohida vazifalar belgilangan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar va ularga turli asosiy va qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi tizimlar faoliyatini klasterlik yondashuv asosida tashkil etish va boshqarishda davlat xususiy sherikchilik mexanizmi asosida klasterning moddiy oqim jarayonlarini samarali nazorat qilishning yagona tizimiga integratsiya qilish soha korxonalarining faoliyat rentabelligini yanada orttirishning samarali usullaridan sanaladi.

Klaster faoliyatida ishtirok etuvchi bir necha hamkorlar, biznes muhiti elementlarini o‘z ichiga olgan klaster tarkibidagi biznes-jarayonlarni boshqarish tashkiliy hamkorlik asosida hal etiladigan asosiy masalalardan biridir. Ushbu turdagi hamkorlikning afzalliklari quyidagilardan iborat :

- barcha darajadagi ishtirokchilarning yaqin hamkorligi;
- ishtirokchilarning ushbu hamkorlikka nisbatan qiziqishi;
- biznes va uni tashkil etish etikasi;
- uzoq muddatli hamkorlik va unda burchlarning paydo bo‘lishi;
- bir-biriga nisbatan ishonch va samimiyat belgilarining mavjudligi.

Klaster tuzilmalarida munosabatlar nafaqat sanoqli ishtirokchilari o‘rtasida, balki bir vaqtning o‘zida butun guruhda quriladi, bu esa boshqaruv funksiyalarini bir muvofiqlashtirish aloqasi doirasida integratsiya qilish va birlashtirish jarayonini yanada murakkab va ko‘p qirrali qiladi [2] .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-may kungi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuni asosida oziq-ovqat sanoati sohasida tashkil etilishi taklif etilayotgan “Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonolari klasteri” faoliyati

soha korxonalarini iste'moli hamda iste'molga taqdim etilayotgan ishlab chiqarish va taqsimoti jarayonidagi klasterning yadrosi hisoblangan davlat-xususiy sherikchilik tamoyilida tashkil etilgan klaster orqali shakllantirilgan yetkazib berish tizimi hamda ularni mahsulotlarini oziq-ovqat sanoati korxonalariga yetkazib beriladigan resurslar va iste'molchilarga mavjud talab asosida yetkazib berishga tayanadi. “Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalar klasteri” respublika hududida yashovchi barcha iste'molchilarning oziq-ovqat sanoati yo'nalishdagi barcha ehtiyojlarini qondirishni ko'zda tutadi va umumiy holda uning tarkibi va faoliyat yo'nalishlari belgilangan.

“Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalar klasteri”ning boshqa oziq-ovqat klasterlardan alohida jihati shundaki – korxonalar o'z faoliyati davomida bozor qonunlariga bo'ysunadi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi mavsumiylik muammosini kamaytirishga va uning narx mexanizmi ta'sirini sezilarli kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ-4246-son “O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida bu jarayonda zaruriy tarmoq issiqxona va saqlash obyektlarini qurish korxonalar uchun moliyaviy jihatdan nisbatan qimmatga tushadi va ushbu vositalarni qurish uchun korxonaga juda katta hajmdagi moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Aynan mana shu jarayonda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi orqali jarayonni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning bir qismini ta'minlaydi [3].

Boshqacha aytganda, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalar klasterining uchta asosiy jarayonida davlatning ishtiroki muhim hisoblanadi:

1. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishda iste'molchilarning daromadi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini inobatga olib, ulgurji va chakana narxlar belgilanishida qatnashish.

2. Klasterning asosiy bo'g'ini hisoblangan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan zaruriy korxonalar, issiqxona, muzlatgich bino-inshoot va boshqa tizimlarni yaratish jarayoni uchun moliyaviy resurslarni kiritish jarayonidagi davlat xususiy sherikchilik shaklida ishtirok etadi.

3. Ishlab chiqarilgan va iste'molchilarga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarning sifatini belgilovchi sifat me'yorlari va standartlarini ishlab chiqish hamda unga amal qilinishini nazorat qilish jarayonidagi ishtirok.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvar, 37-sonli “Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida” qarorida quyidagilar belgilab berilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarning infratuzilmasini yaratish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizini, lekin har bir loyiha uchun 100 mln so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda qoplash nazarda tutilgan.

Ko'zda tutilgan maqsadlardan kelib chiqib, “Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalar klasteri”ni tashkil etuvchi subyektlarning asosiy tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Qishloq xo'jaligi – korxonalar uchun asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi tizim.

2. Saqlash tizimi – mavsumiylik xususiyatini kamaytiradi, natijada klasterning samaradorligini oshirilishiga erishiladi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va katta miqdorda saqlashni yo'lga qo'yish faoliyatiga mavsumiylikning ta'sirini kamaytiradi, natijada klasterning ish samaradorligi va muntazamligi oshirilishiga erishiladi.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar – oziq-ovqat sanoati korxonalarida amaliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar bilan ta'minlaydi.

4. Issiqxonalar – oziq-ovqat sanoati korxonalarini qish mavsumida uchun asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi bo'g'in hisoblanadi.

5. Oziq-ovqat sanoati korxonalariga asosiy xom ashyolarni chorvachilik va bog'dorchilik orqali yetkazib beriladi.

6. Yetkazib berish tizimlari oziq-ovqat sanoati klasterini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi, chorvachilik, bog'dorchilik va asosiy xom ashyoni saqlash o'zaro tizimlarini birlashtiradi (1-rasm).



1-rasm. “Oziq-ovqat sanoati korxonasi klasterining asosiy tarkibi”ni tashkil etuvchi subyektlar [4].

Ushbu klasterning asosini tashkil etuvchisi bo‘lgan davlat-xususiy sherikchilik tamoyili asosida tashkil etiladigan oziq-ovqat sanoati korxonasi aholi punktining tabiiy-geografik joylashuvi, iste‘molchilar soni, daromadi, to‘lov qobiliyati, barcha iste‘molchilar hajmi va boshqa bir qator omillarni hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi [5].

Oziq-ovqat sanoati faoliyatida klaster tarkibidagi korxonalar, ta‘minotchilar va xom ashyo yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish hamda aholi fikrini bilish va ular bilan doimiy aloqa o‘rnatish zarur. Tadqiqot ishini amalga oshirish davomida “Oziq-ovqat sanoati korxonalar klasteri”ni tashkil etish hamda uning ijobiy jihatlari va korxonalar faoliyati davomidagi samaradorliklar aniq asoslarga tayangan holda keltirildi. Ushbu klaster tizimidagi munosabatlarni milliy korxonalar faoliyatiga mos tashkil etilishini ta‘minlash va nazorat qilishda oziq-ovqat sanoati korxonalar uchun amaliy faoliyatda foydalanish uchun tavsiya sifatida taklif etildi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalar faoliyatini boshqarish mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo‘lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

- oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo‘lgan qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko‘magini berish hamda ularga qo‘shimcha imtiyozlar yaratish; oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

- tadqiqot davomida klaster tarkibidagi korxonalar, ta‘minotchilar va agrar soha o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish hamda ushbu munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etilishini ta‘minlash maqsadida amaliyotda foydalanish uchun ishlab chiqilgan “Oziq-ovqat sanoati korxonalar klasteri” hamda uning natijasida erishiladigan natijalar, shuningdek, oziq-ovqat ishlab chiqarish faoliyatida jarayonni samarali tashkil etishda foydalanish amaliy izohlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009

2. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 — №5 s. 23-29
3. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Экономика и социум, (7), 151-159.
4. Turgunov, M. (2021). STATE AND PROSPECTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS OF INNOVATION DEVELOPMENT. Theoretical & Applied Science, (7), 37-42.
5. Turgunov, M. (2019). Mechanisms of effective management of corporations in the republic of Uzbekistan. In Теория и практика корпоративного менеджмента (pp. 123-124).
6. TURGUNOV, M. M. U. (2022). THE STATE OF THE FOOD INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND SOME ASPECTS OF ITS MANAGEMENT. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 156-162.
7. Muhridin, T. U. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 65-75.